# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

№4



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 503 sahifa.*
*E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Viktorovna,** Candidate of Economic Sciences (Moscow)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников ..... 18
**Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович**

O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan soliq to‘lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag‘batlantirish masalalari ..... 26
**To‘xtaboyev Nuriddin Isomiddin o‘g‘li**

Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review ..... 32
**Ismoilova Maftuna Mamat qizi**

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari ..... 38
**Primova Shaxlo Jumayevna**

Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash ..... 43
**Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi**

Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish ..... 52
**Qodirova Zilola Maxmud qizi**

Qo‘shilgan qiymat solig‘i ma’muriyatchiligining ilg‘or xorij tajribasi ..... 57
**Erkayev Nodir Xudayberdiyevich**

O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo‘nalishlari ..... 71
**Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro‘zigul Akmaljon qizi**

Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan’s industrial sector under the fourth industrial revolution ..... 76
**Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**

Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O‘zbekiston mehnat bozoridagi o‘zgarishlar ..... 89
**Tilabova Kumush Farhod qizi**

Mamlakatda “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish ..... 95
**Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o‘g‘li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich**

“Ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish” ..... 101
**Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.**

Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan ..... 105
**Toyirova Hamida Umedovna**

Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli ..... 114
**Shakhlo Davirova**

2020–2024-yillarda o‘zbekistondagi iqtisodiy o‘sish dinamikasi ..... 120
**Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro‘zbek**

O‘zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo‘nalishlari ..... 125
**Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi**

Sug‘urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta’siri ..... 133
**Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o‘g‘li**

Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security ..... 138
**Mamayusuf Abdusamatov**

Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo‘nalishlari ..... 143
**Ataniyazov Jasurbek Xamidovich**

Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров ..... 150
**Ахмедходжаев Равшан Темурович**

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish ..... 157
**Safarov Alisher Ibrohim o‘g‘li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi ........ 163
**Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi**

Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari ........ 167
**Mirdjalilova Dildora Shuxratovna**

Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innavatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari ........ 173
**Ulmasova Oygul Baxtiyorovna**

Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом ........ 178
**Бердиева Дилфуза Ахатовна**

Improving long-term assets accounting and auditing ........ 184
**Gulboy Yusupov**

Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli ........ 189
**Bozorov Alisher Ro'zimurodovich**

Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar ........ 193
**Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur**

Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar ........ 200
**Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li**

Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish ........ 206
**To'qliyev Abdirauf Bahodir o'g'li**

Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri ........ 214
**Bozorova Saxobat Abdujapparovna**

Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса ........ 219
**Садикова Раъно Абдуллаевна**

Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati ........ 225
**Salixova G.J**

Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi ........ 230
**Samandarov Og'abek Alisher o'g'li**

Measuring methodologies of influence of the esg factors ........ 235
**Tolipova Feruza Alisherovna**

Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития ........ 240
**Омонов Отажон Журакулович**

Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish ........ 249
**Quziev Ravshan Ramazanovich**

Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана ........ 253
**Каршиева Мохинур Олим кизи**

Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida) ........ 257
**Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich**

Умные города как фактор экономического развития ........ 261
**Нозима Кахрамоновна Хакбердиева**

Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан ........ 266
**Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна**

Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish ........ 270
**Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich**

Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash ........ 275
**Fozil Xolmurotov**

Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlari ........ 282
**Quliyev Begimqul Melikovich**

O‘zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o‘sishi ........ 289
Eshqobulova Charos O‘roq qizi
Empowering uzbekistan’s grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency ........ 292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish ........ 298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich
To‘qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o‘tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo‘llari ........ 303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan) ........ 307
Azimov Shakhzod
Organik mahsulotlar eksportini rag‘batlantirishda maqsadli bozorlarga yo‘naltirilgan marketing strategiyalari ........ 314
Xidirov Shohrux Bobir o‘g‘li
Korxona iqtisodini barqarorligini ta’minlash masalalari ........ 319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях ........ 323
Джураева Гузаль Шавкатовна
Sug‘urta zararlarini baholashda sun’iy intellektni qo‘llash istiqbollari ........ 328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna
O‘zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari ........ 332
Qo‘ldoshev Diyor O‘rol o‘g‘li
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta’sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili ........ 336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish ........ 342
Xaydarova E’zoza Shukurullayevna
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash ........ 352
Xolto‘rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna
O‘zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta’siri ........ 358
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integrasiyasi istiqbollari ........ 362
Ochilov Abdujabbor Akramovich
O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari ........ 369
Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna
Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni ........ 375
Pulatov Shaxron Axmedovich
Loyiha budjeti va uning ijrosini ta’minlash masalalari ........ 379
Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich
Qishloq xo‘jaligidagi chorvachilik tarmog‘ining iqtisodiy faoliyatini o‘rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida) ........ 390
Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o‘g‘li
Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo‘llari ........ 397
Qurbonov Tolmasjon Namoz o‘g‘li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o‘g‘li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna
Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti ........ 403
Yulduz Usmanova
Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati ........ 411
Hamroyeva Umida

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan ........ 415
**Abdujalilova Bibisora Bakhodir kizi**

Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aktsiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv........ 423
**Urinov Bobur Nasilloyevich**

JAS – barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi ........ 423
**Baynazarov Elmurod Erkinovich**

Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo'llari........ 435
**Olimov Abror Axadjon o'g'li**

The impact of digital financial technologies on the financial system........ 439
**Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li, Pardayev Olim Mamayunusovich**

Korxona eksport salohiyatini oshirishning "yashil" marketing mexanizmi ........ 443
**To'rayev Shohrux Halimovich**

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo'llari ........ 448
**Fayazov Muxiddin Sobirovich**

Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalar ........ 453
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Ayollar tadbirkorligining tarixi: O'zbekiston va dunyo bo'yicha rivojlanishi........ 459
**Burxanova Sabo Tulanovna**

Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar risklarini pasaytirishni takomillashtirish yo'llari........ 466
**Xalilov Umid Ishtemirovich**

Korxona moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliga fundamental yondashuv........ 470
**Dilshodjon O'rinov, Sanobar Ismoilova**

Iqtisodiy o'zgarishlar davrida korxonalar moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi omil va mezonlari ........ 475
**Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi**

Cash accounting as a tool of financial discipline and transparency in the public sector........ 481
**Marqaboyev Sardorbek Abdusalomovich, Annayev Abdurasul Abdurashidovich**

Пути совершенствования практике финансирования социального предпринимательства........ 486
**И.Ж.Исаков**

O'zbekistonda an'anaviy resurslar va qayta ishlanadigan energiya manbalarini rivojlantirish imkoniyatlaridan unumli foydalanish........ 490
**Normurodov Xusan Eshmaxmatovich, Kaxramanova Sevda Shamsiddin qizi**

Ijtimoiy salohiyat – hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishning boshqaruv obyekti sifatida........ 497
**Erkayeva Gulbahor Panjiyevna, Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li**

# IJTIMOIY SALOHIYAT – HUDUDIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOSHQARUV OBYEKTI SIFATIDA





**Erkayeva Gulbahor Panjiyevna**
Qarshi DU professori

**Zoirov G'olibjon Toshtemir o'g'li**
Qarshi DU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida ijtimoiy salohiyatning boshqaruv obyekti sifatidagi roli tahlil qilingan. Tadqiqotda XX asr davomida inson salohiyati va ijtimoiy infratuzilma bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarning nazariy asoslari yoritilib, ularning hududiy rivojlanish omili sifatidagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, ijtimoiy salohiyatni shakllantirishda mulkchilik shakllari, konseptual yondashuvlar va inson kapitali indikatorlarining roli ochib berilgan hamda amaliy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy salohiyat, inson kapitali, konseptual yondashuv, mulkchilik shakli, inson salohiyati indikatori, ijtimoiy infratuzilma.

Abstract: This article explores the role of social potential as an object of governance in ensuring the sustainable development of regional economies. It highlights the theoretical foundations of 20th-century research related to human potential and social infrastructure, justifying their significance as key drivers of regional development. The study further elaborates on the influence of ownership structures, conceptual approaches, and human capital indicators in shaping social potential, and presents relevant conclusions and practical recommendations.

Key words: social potential, human capital, conceptual approach, ownership structure, human potential indicator, social infrastructure.

Аннотация: В статье рассматривается роль социального потенциала как объекта управления в обеспечении устойчивого развития региональной экономики. Раскрываются теоретические основы научных исследований XX века, посвящённых человеческому потенциалу и социальной инфраструктуре, а также обосновывается их значение как факторов территориального развития. Отдельное внимание уделено формам собственности, концептуальным подходам и индикаторам человеческого капитала как ключевым элементам формирования социального потенциала. Представлены соответствующие выводы и практические рекомендации.

Ключевые слова: социальный потенциал, человеческий капитал, концептуальный подход, форма собственности, индикатор человеческого потенциала, социальная инфраструктура.

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60–sonli[1] Farmonida viloyat, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ularning mavjud salohiyatidan samarali va optimal foydalanish masalalari iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Shuningdek, to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishda ijtimoiy sohani, xususan ta’lim hamda sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga doir muhim ustuvor yo‘nalishlar belgilab berilgan [1].

Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududlar taraqqiyoti ko‘p jihatdan ularning ijtimoiy salohiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mazkur salohiyat tarkibida inson kapitali alohida o‘rin tutadi. Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, zamonaviy mualliflar ko‘pincha “ijtimoiy salohiyat” va “inson kapitali” tushunchalarini o‘zaro tenglashtiradilar, ularning mohiyatidagi farqlarni yetarli darajada ajratib ko‘rsatmaydilar. Bu esa ushbu masalani chuqur ilmiy tahlil qilishda muayyan metodologik qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy ijtimoiy salohiyat hamda uning tarkibiy qismlari bo‘lgan inson salohiyati, inson kapitali va ijtimoiy infratuzilma tushunchalarini tadqiq etish masalasi ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda va turli tadqiqotchilar tomonidan har tomonlama o‘rganilmoqda.

Xususan, xorijiy olimlardan Teodor Shuls, P. Rozenstein-Rodan, V. Felkner, J. Tinbergen, X. Arendt, R. Nurkse, A. Xirshman, R. Yoximsen, J. Gelbreyt, O. Portna kabi mutaxassislarning izlanishlari inson kapitali va ijtimoiy infratuzilmaning iqtisodiy taraqqiyotdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.

Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlari – M. A. Nugaev, S. V. Kuznetsov, O. V. Zaborovskaya, D. G. Rodionov, T. V. Zaytseva, A. A. Butorina, V. V. Bryzgalov, V. I. Krikuneko, T. P. Shexina, A. V. Bodak, A. B. Doktorovich tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar ijtimoiy salohiyatni iqtisodiy kategoriyalar nuqtai nazaridan tizimli o‘rganishga asos bo‘lmoqda.

O‘zbekistonlik olimlardan T. M. Ahmedov, T. I. Mardanaqulov, X. X. Egamberdiyev, H. P. Abulqosimovlarning ilmiy ishlari esa hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda inson kapitalining roli, ijtimoiy infratuzilmaning samaradorligi hamda ularni boshqarish mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga xizmat qilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada dialektik, tizimli va sinergetik yondashuvlar, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy tahlil, ilmiy abstraksiya, umumlashtirish, guruhlash hamda jadval usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Muayyan ilmiy yondashuvlardan qat’i nazar, mazkur tadqiqotda inson kapitali va ijtimoiy salohiyat tushunchalarini yagona konseptual maydon doirasida farqlash bilan birga, ularning umumiy va xususiy jihatlarini aniqlashga ham alohida e’tibor qaratildi. Ijtimoiy salohiyat murakkab va ko‘p darajali tizim sifatida qaralib, ayniqsa uning hududiy xususiyatlari chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, hududning ijtimoiy salohiyati – bu jamiyatning hayotiy faoliyatini ta’minlash va rivojlantirishga yo‘naltirilgan, o‘zaro bog‘liq sohalarning asosiy omillari orqali shakllanadigan tizimli tuzilmadir. Ushbu salohiyat tarkibida inson kapitali, ijtimoiy infratuzilma, aholining bilim va malaka darajasi, sog‘liqni saqlash xizmatlari sifati, ijtimoiy himoya tizimi samaradorligi kabi omillar muhim o‘rin tutadi.

1-jadval. “Ijtimoiy salohiyat” tushunchasini ifodalashga mualliflik yondashuvlari.

| Mualliflar | Ta’rif | Ta’kid |
|---|---|---|
| A. A. Butorina | “O‘zaro bog‘liq elementlar majmui – ijtimoiy tizimning dolzarb holati, undagi mavjud resurslar va ulardan ijtimoiy rivojlanish maqsadlarida foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlari.” | Resurslar: hozirgi va kelajakdagi |
| M. A. Nugaev | “Jamiyat a’zolarining ijtimoiy faolligi va ularning hayotiy faoliyatining mehnat, ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy sohalarda ijobiy natijalarga erishish imkoniyatlarini belgilaydigan obyektiv va subyektiv, moddiy va nomoddiy omillarning o‘ziga xos tizimi.” | Subpotensiallar: intellektual, fiziologik, kasbiy-malakaviy, psixologik, innovatsion-ijodiy, qadriyatli |

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60–sonli Farmoni: https://lex.uz/docs/-5841063

| | | |
|---|---|---|
| V. V. Brizgalov, V. I. Krikuneko, T. P. Shexina, A. Dregalo, B. I. Ulyanovskiy | "Inson yoki ijtimoiy birlikning koʻzlangan yoki belgilangan maqsadga erishish qobiliyati. Ijtimoiy salohiyat uchta xususiy salohiyat – aholining byudjet ta'minoti, demografik holati va shaxsiy xavfsizligi yigʻindisidan iborat." | Shaxsiy xavfsizlik, moddiy holat, demografik salohiyat |
| A. V. Bodak, A. B. Doktorovich | "Obyektlarning harakatlanish, oʻzaro ta'sir qilish va xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyatlarini tavsiflovchi elementlardan iborat tizimli tuzilma boʻlib, bu tizim hayotiy faoliyat va ijtimoiy salohiyatni qayta tiklash uchun zarur sharoitlarni yaratadi." | Inson kapitali asosida ijtimoiy tizimni aniqlashtirish |
| T. V. Zaytseva | "Bir tomondan, mintaqa aholisining ijtimoiy faolligi va ularning ijtimoiy borliqning mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarida ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishish imkoniyatlarini belgilovchi elementlar tizimi sifatida; boshqa tomondan, insonning bevosita salohiyati sifatida – uning sogʻligʻi, kasbiy faoliyat davomiyligi, ta'limi, kasbiy mahorati va yangi sifat yaratishga yoʻnaltirilgan ma'naviy-axloqiy fazilatlari; ushbu salohiyatni rivojlantirish va namoyon etish uchun zarur shart-sharoitlar, jumladan moddiy baza, kadrlar, ijtimoiy soha texnologiyalari va jamiyatda inson, guruh yoki butun jamoaning sinergetik faoliyati." | Ijtimoiy salohiyat – mintaqaning barqaror rivojlanish garovi sifatida |

Ijtimoiy salohiyat tushunchasining turlicha talqinlarini hisobga olgan holda, uni ikki asosiy komponent – shaxsiy va ma'muriy-boshqaruv (administrativ) yoʻnalishlar asosida tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Shaxsiy komponent bevosita inson kapitali va uning ichki salohiyatiga bogʻliq boʻlib, quyidagi asosiy subpotensiallardan iborat:

– Kasbiy-mehnat salohiyati – xodimlarning malaka darajasi, ularni qayta tayyorlash va kasbiy rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari bilan belgilanadi;

– Innovatsion salohiyat – xodimlarning yangicha fikrlash, ijodiy yondashuv, ratsional gʻoyalarni ilgari surish va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini ifodalaydi;

– Ta'lim salohiyati – xodimlarning ta'lim darajasi, bilim va koʻnikmalarni uzluksiz rivojlantirish imkoniyatlaridan iborat;

– Ma'naviy-axloqiy salohiyat – intellektual daraja, axloqiy qadriyatlar va ma'naviy fazilatlar majmuasini oʻz ichiga oladi;

– Salomatlik salohiyati – inson sogʻligʻi, psixofiziologik barqarorligi va mehnat faoliyatidagi ishtirok qobiliyatini aks ettiradi.

Ma'muriy-boshqaruv komponenti esa hududiy ijtimoiy salohiyatni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan tashkiliy hamda institutsional omillarni oʻz ichiga oladi. U quyidagi tarkibiy elementlardan iborat:

– ijtimoiy infratuzilmani yaratish va uni modernizatsiya qilish;

– mehnat bozorida aholining bandligini ta'minlash va ishsizlikka qarshi samarali choralarni joriy etish;

– boʻsh vaqtni mazmunli oʻtkazish uchun madaniyat, san'at, sport va boshqa xizmat koʻrsatish muassasalarining mavjudligi;

– xavfsiz va sogʻlom mehnat muhitini yaratish hamda hududning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish;

– aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlovchi tizimlarni takomillashtirish;

– hududiy sogʻliqni saqlash va ta'lim sohalarining rivojlanish darajasi.

XX asr boshlarida inson salohiyatini ilmiy asosda oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlar shakllana boshladi. Xususan, amerikalik iqtisodchi Teodor Shuls ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy rivojlanmaganlik muammolarini tahlil qilish jarayonida insonlarning farovonligi ularning bilim va malaka darajasiga bevosita bogʻliqligini ta'kidlagan. U "inson kapitali" atamasini iqtisodiy tahlilga kiritgan holda, ushbu tushunchaning nazariy asoslarini ishlab chiqqan.

Keyingi yillarda iqtisodchilar bilan bir qatorda sotsiologlar, pedagoglar va tarixchilar ham inson kapitalining turli jihatlarini chuqur tadqiq eta boshladilar. Ular inson resurslarining yashirin salohiyatini aniqlashga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlarni ishlab chiqdilar.

Shu bilan birga, inson salohiyati – bu nafaqat individual, balki ijtimoiy birliklar va institutsional tizimlar darajasida ham namoyon boʻladigan koʻp qirrali tushunchadir. U madaniy, intellektual, biologik, psixologik, ma'naviy va innovatsion jihatlarni oʻz ichiga olib, insonning oʻz salohiyatini roʻyobga chiqarish imkoniyatlarini belgilaydi. Inson oʻzining bilim va koʻnikmalarini qanday muhitda, qanday sharoitda va qanday vaqt oraligʻida amalga oshirishi – ushbu salohiyatning samaradorligini belgilovchi muhim omildir.

Ijtimoiy salohiyatning boshqaruv (administrativ) komponenti nuqtayi nazaridan esa, eng avvalo, mavjud holatni chuqur tahlil qilish va uni takomillashtirishga xizmat qiladigan infratuzilmaviy sharoitlarni baholash zarur. Chunki ijtimoiy infratuzilma ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tayanch elementlaridan biri hisoblanadi.

XX asrning ikkinchi yarmida A. Xirshman, R. Yoximsen, J. Gelbreyt, A. Yangson, M. Kushner va K. Balkus kabi olimlar tomonidan ijtimoiy infratuzilma va uning ijtimoiy salohiyatga ta’sir mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan fundamental tadqiqotlar olib borilgan.

1-rasmda infratuzilma tushunchasini xorijiy manbalarda aniqlashga oid konseptual yondashuvlar ko‘rsatilgan.




1-rasm. Infratuzilmani tadqiq qilishdagi konseptual yondashuvlar.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda infratuzilmaning tarkibiy qismlari bo‘yicha turli xil tasnif variantlariga duch kelish mumkin. Turli mualliflar o‘z ilmiy yondashuvlari asosida infratuzilmaning ijtimoiy, bozor, institutsional va iqtisodiy jihatlarini ajratib ko‘rsatadilar. Ularning fikricha, infratuzilma tizimining funksional imkoniyatlarini tahlil qilishda ushbu yo‘nalishlarning har biri jamiyat a’zolarining kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish, ularning yashash va mehnat faoliyatini ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim omillar sifatida qaralishi zarur.

Mazkur komponentlardan biriga ustuvor e’tibor qaratilishi terminologik yondashuvlar orasida farqlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli, har bir yondashuvning o‘ziga xoslik jihatlari mavjud bo‘lib, ular infratuzilma tushunchasining mazmunini turli nuqtayi nazardan tavsiflaydi. Biroq umumiy nuqtayi nazardan qaralganda, barcha yondashuvlar aslida inson, mehnatkash, tadbirkorlik subyekti yoki boshqa ijtimoiy-iqtisodiy obyektlarning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlarni shakllantirish tizimiga xizmat qiladi [5].

P. A. Pixov va T. O. Kashinaning “Inqirozga qarshi axborot-tahliliy tizim” federal loyihasiga oid materiallarida ijtimoiy infratuzilma uch darajada talqin qilinadi:

- Makrodarajada – iqtisodiy va siyosiy hayotning umumiy tuzilishida yordamchi va bo‘ysunuvchi funksiyaga ega bo‘lgan, tizimning ishlashi va takror ishlab chiqarilishi asosini ta’minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy hayot tarmoqlari majmuasi;
- Mezodarajada – ma’lum bir hududga xizmat ko‘rsatadigan obyektlar yoki inshootlar tizimi;
- Mikrodarajada – har qanday firmaning faoliyati uchun zarur bo‘lgan muhandislik-texnik infratuzilma majmuasi [6].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahliliga asoslanib, ijtimoiy infratuzilmaning asosiy tarkibiy qismlariga oid quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: infratuzilmani barcha xizmat ko‘rsatish sohalari tashkil etib, ular aholining turli ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo‘lib, inson hayotiy faoliyati uchun muhim shart-sharoitlarni yaratish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, ijtimoiy salohiyatning ushbu tarkibiy qismiga jamiyatning ijtimoiy qayta ishlab chiqarish jarayoniga hissa qo‘shuvchi subyektlar ham kiradi. Ular insonlarning ma’naviy, estetik, madaniy va intellektual qobiliyatlarini shakllantirib, jamiyat tizimining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu bois, ijtimoiy infratuzilmani hududning ijtimoiy salohiyatining tizimli va ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholash ilmiy va amaliy jihatdan asosli hisoblanadi. Ushbu tizim jamiyatning hayotiy faoliyatini uzluksiz ta’minlash, inson salohiyatini shakllantirish va inson kapitalining takror ishlab chiqarilishi jarayonida bevosita ishtirok etuvchi ijtimoiy va xususiy subyektlar o‘rtasidagi funksional aloqalarni o‘zida mujassam etadi.

Mazkur infratuzilmaning doirasiga sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy himoya, madaniyat va san’at, maktabgacha hamda maktab ta’limi, oliy va kasbiy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga xizmat qiluvchi tuzilmalar, texnologik innovatsiyalar va ilg‘or texnologiyalar, moliya, kredit, sug‘urta va pensiya ta’minoti tizimlari, ekologik xavfsizlik infratuzilmalari, shuningdek, uy-joy va kommunal xo‘jalik tarmoqlari kiradi.

Ijtimoiy infratuzilmaning asosiy funksional vazifasi – hudud aholisi, jumladan, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, ta’lim va sog‘liqni saqlash sohalarida faoliyat yuritayotgan fuqarolarning yashash sharoitlarini qo‘llab-quvvatlash, ularning sog‘lig‘i va hayot sifatini oshirishga qaratilgan kompleks choralarni amalga oshirishdan iboratdir. Ushbu jarayonda quyidagi strategik yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratiladi:

- aholining turmush sharoitlarini yaxshilash va yashash muhitining sifatini oshirish;
- o‘rta maxsus, oliy va uzluksiz ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar uchun qulay ilmiy va amaliy muhit yaratish;
- sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, reabilitatsiya xizmatlarini kengaytirish;
- kam ta’minlangan aholi qatlamlari, pensionerlar, nogironlar va talabalar uchun ijtimoiy yordam tizimlarini takomillashtirish;
- bolalar uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida sifatli xizmatlarni keng joriy etish;
- sport, madaniyat va dam olish imkoniyatlarini oshirish;
- ekologik muhitni yaxshilash, barqarorlikni ta’minlash va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish usullarini qo‘llab-quvvatlash.

Hududning ijtimoiy salohiyatini samarali boshqarish, bizning fikrimizcha, mavjud resurslar, xususan inson salohiyatini to‘g‘ri yo‘naltirish, shuningdek, mintaqaviy infratuzilmaviy imkoniyatlarni chuqur tahlil qilishga asoslangan holda amalga oshirilishi lozim. Bu jarayonda fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, iqtisodiy subyektlar, mahalliy hokimiyat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasidagi funksional o‘zaro hamkorlik muhim o‘rin egallaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy salohiyat hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy omillaridan biri bo‘lib, u inson kapitali, ijtimoiy infratuzilma va boshqaruv tizimlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni anglatadi. Ijtimoiy salohiyatni boshqaruv obyekti sifatida baholashda uni shaxsiy va ma’muriy-boshqaruv komponentlari asosida tahlil qilish yondashuvi amaliy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, hududlarda ijtimoiy infratuzilmaning holati, aholining ta’lim, salomatlik, madaniyat va bandlik bilan ta’minlanish darajasi bevosita ijtimoiy salohiyatning shakllanishi va takror ishlab chiqarilishiga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmlardir. Shu sababli, mahalliy infratuzilma resurslarining to‘liq safarbar qilinishi va funksional aloqalarning mustahkamlanishi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va hududlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

1. Hududiy ehtiyojlarni aniqlash va individual yondashuvni shakllantirish – har bir mintaqaning demografik, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, moslashtirilgan strategik rejalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish lozim.
2. Ko‘p tomonlama hamkorlik tizimini kuchaytirish – davlat-xususiy sheriklik, jamoatchilik va nodavlat tashkilotlar o‘rtasida ijtimoiy sohalarda integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish zarur.
3. Inson kapitalini rivojlantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz ta’lim tizimini kengaytirish – aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida kasbiy tayyorgarlik va malaka oshirish dasturlarini takomillashtirish, ularni zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirish kerak.
4. Ijtimoiy infratuzilmani kompleks modernizatsiya qilish – sog‘liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy himoya, transport va kommunal xizmatlar tizimlarini zamonaviylashtirish orqali aholining hayot sifati va salohiyatini oshirishga zamin yaratish lozim.
5. Innovatsion va texnologik yondashuvlarni rag‘batlantirish – ilg‘or texnologiyalar asosida ijtimoiy xizmatlar sifati va qulayligini oshirish, hududiy iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlarni mustahkamlash talab etiladi.
6. Axborot va tahliliy resurslar bazasini rivojlantirish – ijtimoiy salohiyat va infratuzilma holatini baholovchi indikatorlar asosida statistik monitoring va prognozlash tizimini yo‘lga qo‘yish zarur.
7. Aholining faol ishtirokini ta’minlash – jamoatchilik fikrini inobatga olgan holda, qaror qabul qilish va infratuzilma rivojida fuqarolarning bevosita ishtirokini rag‘batlantirish, ularni ijtimoiy salohiyatni takror ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish lozim.
8. Ekologik barqarorlikni ta’minlash – infratuzilma rivoji jarayonida ekologik xavfsizlik tamoyillariga qat’iy amal qilish, yashash muhiti sifatini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, hududlarning ijtimoiy salohiyatini samarali boshqarish – bu infratuzilmaviy, institutsional va insoniy resurslarning uzviy uyg‘unligi asosida shakllanuvchi kompleks jarayondir. Taklif etilgan yo‘nalishlar ushbu tizimni takomillashtirishga, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga va hududiy taraqqiyotga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–yil 28–yanvardagi “2022–2026–yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60–sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/5841063
2. Баранова И.В. Интеграция человеческого потенциала в структуру социального потенциала региона / Баранова И.В. // Современные аспекты экономики и управления: сборник научных статей аспирантов, соискателей и докторантов. – 2018. – С. 215.
3. Баранова И.В. Проблемы управления социальным потенциалом // Журнал правовых и экономических исследований. – 2014. – № 2(1). – С. 165–170.
4. Joanna M. Moczydlowska. (2015). «Empowerment – A New Look At Activating Human Potential In An Organization. Measures Of Empowerment,» GUT FME Conference Publications, in: Katarzyna Stankiewicz (ed.), Contemporary Issues and Challenges in Human Resource Management, chapter 7, pages 78–86, Faculty of Management and Economics, Gdansk University of Technology.
5. Марданакулов Т.И., Егамбердиев Х.Х. Развитие рыночной инфраструктуры региона в условиях модернизации экономики // Экономика и предпринимательство. – 2016. – № 4–1 (69). – С. 1042–1045.
6. Маяковский И.В. Инфраструктура традиционного сектора экономики северного региона России // Экономика и предпринимательство. – 2016. – № 1 (54). – С. 381–386.
7. Смирнова О.А. Социальная инфраструктура региона: сущность, проблемы развития // Современные наукоемкие технологии. Региональное приложение. – 2014. – № 2 (38).
8. Пыхов П.А., Кашина Т.О. Инфраструктура как объект экономических исследований // Журнал экономических исследований. – 2016. – № 1. – С. 39–46.
9. Ломовцева О.А., Мордвинцев А.И. Условия и векторы развития социальной инфраструктуры регионов России // Вестник Астраханского государственного технического университета. – 2012. – № 2 (декабрь). – С. 46–53.
10. Эркаева Г.П., Рузиқулов С.З. (2022). Инсон капиталини шаклланиши, ривожланиш даражалари ва инсон капиталини инвестициялаш // Gospodarka i Innowacje. – № 24. – С. 225–229.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2025. № 4



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz